

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 6 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 6

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 6



ТОШКЕНТ-2026

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайкулов Тулқин Дўстобоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз далаат педагогика институти

Гоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Қариши давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддиневич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмутаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Хакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнура Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Ахмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллахжаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Абдор Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоков Бахтиёр Робиддинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети


Хасанова Нодира Ибрагимовна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти, Денов
тадбиркорлик ва педагогика институти

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

1. Dilnoza Ganiyevna Atadjanova JANUBIY XORAZM VOHASIGA QADIMGI AHOLI MIGRATSIYASI: ARXEOLOGIK VA TARIXIY MANBALAR TAHLILI.....	5
2. Anora Zayniddinovna Tog‘aeva TARIXIY ADABIYOTLARDA TURKISTONNING ROSSIYA IMPERIYASI BILAN SAVDO ALOQALARI XUSUSIDA.....	12
3. Sayfiddin Muxitdinovich Anarkulov SHAHAR MUHITIGA IJTIMOIIY-IQTISODIY MOSLASHUV JARAYONLARINING ANTROPOLOGIK TAHLILI.....	19
4. G‘ulom Masharipovich Djumamuratov, Muslima Maxmudovna Bazarova MARKAZIY OSIYO HUDUDI BO‘YLAB O‘ZBEK URUG‘LARINING JOYLASHUVI MANBALARDA.....	27
5. Farxodjon Odiljonovich Ismatullayev O‘ZBEKISTON–YEVROPA ITTIFOQI HAMKORLIGINING EVOLYUSIYASI VA ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	32
6. Нигора Рахимджанова ЖАДИД НОШИРЧИЛИГИНИНГ МАНБАШУНОСЛИГИ.....	40
7. Axmedjon Shonazarovich Yusupov ILK SAK QABILALARI MADANIYATI TARIXINI O‘RGANISHNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI.....	49
8. Amirbek Tag‘bayev B.X. KARMISHEVA ASARLARIDA ANTROPONIMLAR MASALASI.....	55
9. Nodira Nabiyevna Safixodjayeva MUSTAQILLIK YILLARIDA “MEHRIBONLIK” UYLARIDA YARATILGAN MODDIY- TEXNIK SHAROITLAR.....	61
10. Ozodaxon Botirjon qizi Abdunosirova, Ruxshona Akramjon qizi Abduvoidova UBAYDULLAXON DAVRIDA BUXORO XONLIGIDA ME’MORCHILIK TARAQQIYOTI...69	69
11. Gulom Masharipovich Djumamuratov O‘ZBEK URUG‘LARI TARKIBIDAGI OROL O‘ZBEKLARI TAHLILI.....	74
12. Rabiyaon Mansurbekovna Ibragimova DING‘ILDJA DEHQONCHILIK VOHASI GEOGRAFIK XUSUSIYATLARINING TARIXIY TAHLILI.....	80



G'ulom Masharipovich Djumamuratov
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
O'zbekiston tarixi kafedrasini,
katta o'qituvchi

Muslima Maxmudovna Bazarova,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
O'zbekiston tarixi kafedrasini,
katta o'qituvchi

MARKAZIY OSIYO HUDUDI BO'YLAB O'ZBEK URUG'LARINING JOYLASHUVI MANBALARDA

For citation: Gulom M.Djumamuratov, Muslima M.Bazarova. DISTRIBUTION OF UZBEKI TRIBES ACROSS CENTRAL ASIA. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 6.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21807248>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Markaziy Osiyo hududida o'zbek urug' va qabilalarining joylashuvi masalasini tarixiy manbalarga asosan tahlil qiladi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharq qo'lyozmalari fondida saqlanayotgan № 4330 va № 4188-sonli qo'lyozmalar, Sayfiddin Axsikentiy, A.Xoroshxin, N.V.Xankov, D.N.Logofet, Ch.Valixonov va boshqa mualliflarning asarlaridagi 92 ta o'zbek urug'i ro'yxatlari solishtirilgan. Mualliflar urug' nomlarining ro'yxatdagi tartibi tasodifiy emasligini, balki ularning siyosiy ahamiyati, mintaqadagi ta'siri va o'zaro yaqinligini aks ettirishini ko'rsatadilar. Zaki Validiy Toshkentiy va boshqa olimlarning ma'lumotlariga tayangan holda yirik urug' guruhlari (qo'ng'iroq, nayman, kenagas, mang'it va boshqalar) va ularning geografik joylashuvi tahlil qilingan. Tadqiqot Markaziy Osiyo xalqlarining etnik tarixi, etnogenezi va mintaqaviy hamkorlik masalalarini chuqurroq o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: o'zbek urug'lari, Markaziy Osiyo, etnik geografiya, qabilaviy tarkib, tarixiy manbalar, qo'ng'iroq, mang'it, etnogenezi, Buxoro xonligi, Qo'qon xonligi.

Джумамуратов Гулом Машарипович,
Узбекский государственный университет мировых языков,
Кафедра истории Узбекистана,
Старший преподаватель
Базарова Муслима Махмудовна,
Узбекский государственный университет мировых языков,
Кафедра истории Узбекистана,
Старший преподаватель

РАСПОЛОЖЕНИЕ УЗБЕКСКИХ РОДОВ НА ТЕРРИТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В ИСТОЧНИКАХ

АННОТАЦИЯ

В статье на основе исторических источников анализируется размещение узбекских родов и племён на территории Центральной Азии. В работе проведено сравнение списков 92 узбекских родов, содержащихся в рукописях № 4330 и № 4188 Восточного фонда Академии наук Республики Узбекистан, а также в сочинениях Сайфиддина Аксикенти, А.Хорошхина, Н.В.Ханыкова, Д.Н.Логофета, Ч.Валиханова и других. Авторы показывают, что порядок перечисления родов в списках не случаен, а отражает их политическое значение, влияние в регионе и степень взаимной близости. На основе данных Заки Валиди Тогана и других исследователей проведён анализ крупных родовых групп (кунград, найман, кенегес, мангыт и др.) и их географического распространения. Исследование имеет важное значение для углублённого изучения этнической истории народов Центральной Азии, процессов этногенеза и вопросов регионального сотрудничества.

Ключевые слова: узбекские роды, Центральная Азия, этническая география, племенной состав, исторические источники, кунград, мангыт, этногенез, Бухарское ханство, Кокандское ханство.

Gulom M. Djumamuratov,

Uzbek State University of World Languages,
Department of History of Uzbekistan,
Senior Lecturer

Muslima M. Bazarova,

Uzbek State University of World Languages,
Department of History of Uzbekistan,
Senior Lecturer

THE LOCATION OF OZBEK TRIBES ACROSS THE TERRITORY OF CENTRAL ASIA IN SOURCES

ABSTRACT

This article analyzes the distribution of Uzbek tribes and clans across Central Asia based on historical sources. The study compares lists of 92 Uzbek tribes found in manuscripts No. 4330 and No. 4188 from the Oriental Manuscripts Collection of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, as well as in the works of Sayfiddin Aksikenti, A.Khoroshkhin, N.V.Khanykov, D.N.Logofet, Ch.Valikhanov, and other authors. The authors demonstrate that the order of tribes in these lists is not random but reflects their political significance, regional influence, and mutual affinity. Drawing on the data of Zaki Validi Togan and other scholars, the study examines major tribal groups (Qongirat, Naiman, Kenagas, Manghit, etc.) and their geographical locations. The research holds significant value for a deeper understanding of the ethnic history of Central Asian peoples, processes of ethnogenesis, and issues of regional cooperation.

Index Terms: Uzbek tribes, Central Asia, ethnic geography, tribal composition, historical sources, Qongirat, Manghit, ethnogenesis, Bukhara Khanate, Kokand Khanate.

Dolzarligi:

Markaziy Osiyo hududi bo'ylab o'zbek urug'larining joylashuvi mavzusi bugungi kunda etnik-tarixiy, ijtimoiy-siyosiy va regional hamkorlik masalalarini o'rganishda aynan dolzarb ahamiyatga ega. Bu mavzu o'zbek xalqining etnogenezini, urug'-tuzum tizimining mintaqadagi shakllanish jarayonlarini va zamonaviy davlatlar chegaralari ichida etnik birlikning saqlanib qolish mexanizmlarini tushinishda muhim omil hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi quyidagi asosiy jihatlar bilan izohlanadi:

1. **Etnik-tarixiy jarayonlarni qayta tiklash:** Sovet davrida chegaralar qat'iy belgilanganligi sababli, o'zbek urug'larining tabiiy joylashuvi va migratsiya yo'nalishlari ko'pincha noto'g'ri tahlil qilingan. Mavzuni o'rganish orqali etnik tarixning haqiqiy manzarasi qayta tiklanadi.

2. Regional hamkorlik va birlik: O'zbekiston tashqi siyosatining yetakchi yo'nalishi Markaziy Osiyo mamlakatlari (Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston) bilan do'stlik va hamkorlik aloqalarini mustahkamlashdir. Urug'lar joylashuvi mintaqadagi xalqlarning tomirlarining tutashib ketganligini va ularni yaqinlashtirishning zaminini ko'rsatib beradi.

3. Zamonaviy geosiyosiy sharoit: Geosiyosiy manzara o'zgaruvchan bo'lib, Markaziy Osiyo davlatlari Yevrosiyaning yuragi bo'ylab faol yetakchilar sifatida namoyon bo'ldi. Bu sharoitda etnik joylashuvni o'rganish mintaqaviy barqarorlik va hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

4. Ilmiy aloqalarni mustahkamlash: Markaziy Osiyo mintaqasi yillar davomida mushtarak etno-madaniy muhit bo'lganligini ko'rsatib berish va mintaqa davlatlari o'rtasidagi ilmiy aloqalarni mustahkamlash dolzarblashmoqda.

Bu tadqiqot etnik jeografiya, tarixiy antropologiya va regional siyosiy tahlil sohalari uchun nazariy va amaliy qimmatga ega bo'lib, zamonaviy Markaziy Osiyo davlatlarining etnik-tarixiy asoslarini chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Maqolada umumqabul qilingan ilmiylik, tarixiylik, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan holda ilmiy adabiyotlar chuqur tahlil etilgan.

Markaziy Osiyo hududi bo'ylab o'zbek urug'larining joylashuvi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining (№ 4330) sonli qo'lyozmasida hamda XIX asrning ikkinchi yarmida tuzilgan va hozirda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining № 4188 sonli sharq qo'lyozmalari to'plamida saqlanayotgan anonim muallif tomomonidan 92 ta "o'zbek" urug'larining ro'yxati "Salnomayi Xo'ja al-Hakim Tarmaziy" risolasida eslatma sifatida kiritilgan.

Mavzuga doir A.Xoroshxinning eslatmalari og'zaki to'plangan ma'lumotlarga asoslanganligini ko'rish mumkin. A.Xoroshxin o'zining eslatmalarida urug'larning tarkibiga ko'ra, Buxoro xonligining etnografik guruhlarini va ularning ushbu davlat ichidagi mavqeini ajratib turadigan, "Nog'ay-Qozoq" hamda "Mang'it-Qozoq" urug'lar bo'lganligi to'g'risida ehtimollardan iborat ma'lumotlar beradi.

Manbaning o'ziga xos jihati shundaki, Buxoroni boshqargan mang'itlardan keyin ikkinchi o'rinda qozoq urug'lari turganligi haqidagi A.Xoroshxin bergan ma'lumotlar Sayfiddin Axsikentiyning ro'yxatida umuman yo'q bo'lgan qozoq urug'larini ikkinchi o'rinda ko'rsatadi. Ulardan keyingi o'rinlarni qoraqalpoqlar va turkmanlar egallashgan. Bular asosan Qo'qon xonligida yashagan ming, yuz va qirk urug'lari esa A. Xoroshxin ro'yxatida atigi 19, 20 va 21-o'rinlarni egallaganliklari aytiladi.

Tadqiqot natijalari:

Yuqorida keltirilgan ro'yxatlardan tashqari, turli vaqtlarda nashr etilgan yana bir nechta manbalarda 92 ta "o'zbek" qabilalarining ro'yxatlari mavjud. Ulardan N.V.Xankov va D.N.Logofet Buxoro versiyasini ifodalaydi va shuning uchun Buxoroda hukmronlik qilgan sulola nomi sifatida mang'it ro'yxatlari ikkala ro'yxatda ham birinchi o'rinda turadi. Ch.Valixonov va X.Daniyarov tomonidan taqdim etilgan ro'yxat "Tuxfat at-tavarix-i xoni" ro'yxati bilan eng katta o'xshashlikka ega va Qo'qon xonligi aholisining qabilaviy tarkibini aks ettiradi.

Shunday qilib, taqdim etilgan materiallarga asoslanib, ro'yxatlarda qabilalar nomlarining sanab o'tilish tartibi tasodifiy hodisa emas, balki ma'lum bir mantiqqa asoslangan bo'lib, asosan siyosiy omillar bilan bog'liq ekanligini va bu qabilalarning shahar va davlat siyosiy hayotidagi rolini aks ettirishini ta'kidlash mumkin. Ushbu xulosani tasdiqlash uchun S.M.Abramzonning ma'lumotlarini keltirish joiz. U 1950-yillarda Qirg'izistonda olib borgan dala tadqiqotlari davomida qayd etgan 92 ta o'zbek urug'i ro'yxatida qatag'on urug'i birinchi o'rinda keltirilgan. Bu holat qirg'iz xalqining "Manas" dostonida ham o'z aksini topgan.

Mazkur faktlar ayrim o'zbek urug'larining qirg'izlar bilan yaqin qarindoshligini va ularning umumiy ajdodga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, N.V.Xanikov, D.N.Logofet, G.Jarring va H.Daniyarovning ishlari ham ushbu ro'yxatlar o'rtasidagi o'xshashliklarni tasdiqlaydi. Natijada, urug' nomlarining ro'yxatdagi o'rni ularning siyosiy va ijtimoiy ahamiyatini aks ettiruvchi muhim ko'rsatkich sifatida namoyon bo'ladi.

Agar urug' nomlarining ketma-ketligini tizimli ravishda tahlil qilsak, ro'yxatlarda birga uchraydigan qabilalar va urug'larning nomlari ularning geografik yaqinligini, genetik qarindoshligini va bitta yirik uyushma tarkibiga kirishini yaqqol namoyon etadi.

Ushbu savollarga javob berish maqsadida biz deyarli barcha ro'yxatlarda birgalikda uchraydigan urug' va qabila nomlarini tahlil qildik. Nomlarning ro'yxatga olish va yozilish va tartibi asl nusxalarga asoslangan. Asosiy manba sifatida Sayfiddin Axsikentiyning "Majmuai at-tavorix" asarida berilgan ro'yxat olingan.

Sayfiddin Axsikentiyn ro'yxatida 40 ga yaqin o'zbek urug'i 10 ta yirik guruh tarkibida keltirilgan. Ko'pgina urug'lar turli ro'yxatlarda takrorlanadi, ammo tartib raqamlari farq qiladi. Qizig'i shundaki, Axsikentiyn ro'yxatida uchraydigan 11 ta urug' nomi keyingi manbalarda uchramaydi. Bu urug'larning kam sonli bo'lgani va siyosiy jihatdan kamroq faolligi, shuningdek, ularning ko'pincha XVII asr ro'yxatining oxirida keltirilgani bilan izohlanishi mumkin. Natijada, ular XIX asr ro'yxatlariga kirmagan.

Ushbu o'zbek guruhlarini o'rganish ularning ro'yxatdagi mavqei mintaqadagi yaqinlik darajasi va yagona etnik birlashmaga mansubligini aks ettirishini ko'rsatadi. Masalan, Zaki Validiy Toshkentiy o'zining "O'zbek urug'lari" asarida o'zbek urug'larining tarkibini batafsil tasniflaydi. Asarda shuni kuzatish mumkinki, yirik urug' guruhlar tarkibiga bir qancha mayda guruhlar (aymog' va tarmoqlar) kirgan. Zaki Validiy Toshkentiy o'zining "O'zbek urug'lari" asarida o'zbek urug'larini tasniflashda **birinchi guruh** sifatida qo'ng'iroq urug'ini keltiradi. Bu urug' beshta asosiy aymog'dan iborat bo'lib, ularning har biri o'z navbatida bir necha tarmoqlarga bo'linadi:

1. Qanjig'ali aymog'i – 14 ta tarmoqdan iborat: o'ris, qoraqursoq, cho'llik, quyon, qo'ldovli, miltek, ko'rto'g'li, gala, to'pqora, qorabo'z, no'g'ay, bilgalik, do'stalik;

2. Uyunli aymog'i – 9 ta tarmoqdan iborat: oqtana, qora, churan, turkman, quvuq, beshbola, qajay, ho'jabacha;

3. Qoshtamg'ali aymog'i – 9 ta tarmoqdan iborat: qo'lobi, barmoq, go'jaxyo'r, ko'l-chuburg'on, qoraqalpoq, qo'shtamgali, safarbiz, dilbari, jachaqli;

4. Oq tamg'ali aymog'i – 7 ta tarmoqdan iborat: totuvli, og'amayli, ishiqoli, qozonjili, o'ykuli, bukachi, qiyug'ali;

5. Qir aymog'i – 5 ta tarmoqdan iborat: guzili, ko'savli, ters, baliqli, kuba.

Qo'ng'iroq urug'ining barcha sho'balari va tarmoqlari asosan Amudaryo havzasida, xususan Buxoro viloyatining G'uzor, Sherobod va Qo'rg'on tepa hududlarida joylashgan.

Ikkinchi guruh. uchta asosiy aymog'dan iborat: Qoshtamg'ali, Uvaqtamg'ali va Sadir. Ular asosan Xorazm va Samarqand atroflarida yashagan.

Uchinchi guruh. Kenagas besh aymog'dan iborat: Qayurasali, Qaroqli, Ochamayli, Jikkut va Aboqli. Bu guruh Xiva va Shahrisabz hududlarida istiqomat qilgan.

To'rtinchi guruh. urug'i uch aymog'dan iborat: To'q mang'it, Oq mang'it va Qora mang'it. Ular Xiva va Qarshi atroflarida yashagan.

Beshinchi guruh. Tuyoqli – Saamarqaand va Kattaqo'rg'on tumanlarida joylashgan.

Oltinchi guruh. Mo'ytan – Samarqand va Kattaqo'rg'on atroflarida istiqomat qilgan.

Yettinchi guruh. Saroy – Shahrisabz va Yakkabog' hududlarida yashagan.

Sakkizinchi guruh. Borin – Farg'on viloyati va Kattaqo'rg'on tumanida yashashgan..

To'qqizinchi guruh. Xitoy – geografik joylashuvi alohida qayd etilgan.

O'ninchi guruh. Qipchoq – Samarqand va Kattaqo'rg'on tumanlarida muhim mavqega ega bo'lgan; Xiva va Farg'onada esa ozchilikni tashkil etgan.

O'n birinchi guruh. Ming – Samarqand, Panjikent, Jizzax va Farg'onada ham yashashgan.

O'n ikkinchi guruh. Uch urug' (Misit, Tomo, Yobu) – Buxoraning Ziyovuddin hududida joylashgan.

O'n uchunchi guruh. Burqut. – Chelek va Karmana atroflarida yashaganlar.

O'n to'rtinchi guruh. Arlot – Qorako'l hududida yashashgan.

O'n beshinchi guruh. Qangli – Jizzax hududida istiqoman qilganlar.

O'n oltinchi guruh. Qirq, Yuz, Ming Jizzax tumanida yashaganlar.

O'n yettinchi guruh. Batash – Qarshi va G'uzor taraflarida yashashgan.

О‘н sakkizinchi guruh. Qoraqolpoq besh aymoqdan iborat: qorqqo‘yli, qorqsigir, oymavut, istek, oshamayli. Ular Amudaryo havzasida va Samarqandning shimolidagi Oqtepa hududlarida yashashgan.

Xulosa. Taqdim etilgan tarixiy manbalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, Markaziy Osiyo hududida o‘zbek urug‘ va qabilalarining joylashuvi hamda ularning ro‘yxatlardagi tartibi tasodifiy emas. Bu tartib asosan siyosiy kuch va ta’sir doirasini, geografik yaqinlikni hamda etnik-genetik qarindoshlikni aks ettiradi. O‘zbek urug‘larining ko‘pchiligi umumiy ajdodga ega bo‘lib, qo‘shni xalqlar, xususan qirg‘izlar bilan yaqin etnogenetik aloqalarga ega. Ro‘yxatlardagi nomlar tartibi urug‘larning siyosiy hayotdagi mavqeini hamda mintaqaviy integratsiya jarayonlarini yoritishda muhim manba hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot Markaziy Osiyo xalqlarining etnik tarixini chuqurroq o‘rganish, mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash va zamonaviy davlatlar o‘rtasidagi tarixiy-ildizlarni anglashda nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Абрамзон С.М. Этнический состав киргизского населения Северной Киргизии. – “Труды Киргизской археолого-этнографической экспедиции”. Т. 4. М., 1960
2. Ахмедов Б. А. Государство кочевых узбеков. М. 1965.
3. Задыхина К.Л. Узбеки дельты Аму-дарьи // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Т. I. М., 1952.
4. Султанов Т.И. Кочевые племена приаралья в XV-XVII вв. – Москва: Наука, 1982.
5. Бартольд В.В. Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии. – Сочинения. Т. 5. М., 1968.
6. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. СПб, 1865.
7. Василевич Г. М. Этнонимы в фольклоре.— Фольклор и этнография. Л., 1970
8. Ханыков Н.В. Описание, Бухарского ханства. СПб., 1843.
9. Jarring Gunnar. On the Distribution of Turk tribes in Afghanistan. An attempt at a Preliminary classification. – Lund Universitets Arsskrift. N. F. Avd. I. Bd 35. №4. Lund – Leipzig, 1939

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000